

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

## Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari .....	6
<b>Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi .....	11
<b>Karimova Nilufar</b> , tayanch doktarant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan .....	16
<b>Peng Xinge</b> , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
<b>Xotamov Ibodulla Sadullayevich</b> , i.f.n., professor, <b>Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li</b> , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
<b>Azlarova Munira Muhammad Amin qizi</b> , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective .....	40
<b>Kuzikulova Dilfuza</b>	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
<b>Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna</b> , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
<b>Eshbayev Oybek</b> , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy.....	68
<b>Rozikov Ravshan</b> , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
<b>Kurbanova Nigina</b> , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road .....	85
<b>Kalonov Mukhiddin Bahridinovich</b> , professor	
<b>Shao Junling</b> , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
<b>Zhao shenghan</b>	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
<b>Abduraximova Dilora Karimovna</b> , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
<b>Xasanxonova Nodira Isametdinovna</b> , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
<b>Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich</b> , kafedra assistent	
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat .....	112
<b>Kaxorova Anora Nusratovna</b> , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari .....	118
<b>Qahramon Usmanovich Umidullayev</b> , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish .....	129
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari .....	133
<b>Sh. B. Babayev</b> , dotsent; <b>M. R. Qulmetov</b> , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari .....	138
<b>G'aniyev Shahriiddin Vohidovich</b> , professor, i. f. d. (DsC), <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики .....	144
<b>Жиянова Наргиза Эсанбоена</b> , к.э.н., проф., <b>Азимжонова Малика Шавкат қизи</b> , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi .....	150
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b> , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
<b>Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli</b>	
"История экономических учений" как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов .....	160
<b>Хакимов Назар Хакимович</b> , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership .....	166
<b>Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li</b>	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
<b>Xasanova Zarina</b> , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
<b>M. O. Hamroqulov</b> , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
<b>Farhod Bagibekovich Xalimbetov</b>	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region) .....	188
<b>Saidov Nurali Rakhimovich</b>	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region. ....	193
<b>S. M. Rakhimova</b>	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров .....	197
<b>Джурабаев Отабек Джурбаевич</b> , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari....	204
<b>Hakimov Feruz Xurshid o'g'li</b> , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagি o'rni .....	207
<b>Baratova Dinora Alisherovna</b> , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari .....	213
<b>Qulmatova S.</b> , PhD, katta o'qituvchi; <b>Karimov Botir</b> , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati .....	218
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari.....	223
<b>Odilova Sitora Sayfitdin qizi</b> , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari .....	228
<b>Saydullayeva Fotima Jozilovna</b> , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
<b>Xasanov Xayrulla Nasrullahovich</b>	
O'zbekiston yoshlarida volontorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba .....	241
<b>Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich</b> , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе ....	247
<b>Оспан Айзада Бейсенқызы</b> , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
<b>Mirzoyev Feruz Mamurjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari .....	259
<b>Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth .....	267
<b>Rasulov Jamshid Shokir o'g'li</b>	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
<b>Madraimov Xabibulla Madaminovich</b> , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari .....	282
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b> , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash .....	288
<b>Ergashova Nargiza Boboxonovna</b> , talaba	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari .....	296
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari.....	301
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati .....	306
<b>Babadjanova Malika Ruzimovna</b> , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli .....	312
<b>Kamilov Baxramjon Umardjonovich</b>	
Shaxs ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
<b>Bekdavlat Aliyev</b> , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari .....	321
<b>O. T. Nurmatov</b> , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
<b>Abdullayev Suyun Artiqovich</b> , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b> , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
<b>D. A. Azlarova</b> , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development:	
Balancing Environment and Business Needs .....	360
<b>Kholikova Rukhsora Sanjarovna</b> , PhD, <b>Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli</b> , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari .....	364
<b>Zuhra Abdikarimova</b> , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfeli shakllantirish.....	370
<b>Sindarov Fazliddin Qahramonovich</b> , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari .....	376
<b>To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi</b> , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
<b>B. K. Tuxliyev</b> , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
<b>Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi</b> , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
<b>Aminboy Sa'dullayev</b> , i.f.n., dotsent, <b>Dilshod Vaisov</b> , magistr, <b>Farhod Egamberganov</b> , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish.....	397
<b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b> , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
<b>Muxtidinova Kamola Alisherovna</b> , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
<b>Gafurov Olimjon</b> , teacher, <b>Kholmuminov Humoyun</b> , teacher, <b>Abrueva Sevinch</b> , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики .....	411
<b>Ф. Т. Абдувахидов</b> , доцент, <b>А. Ю. Нурмухаммедов</b> , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri .....	417
<b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b> , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan .....	420
<b>Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli</b>	



# AKTSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATDA ICHKI NAZORAT VA AUDITNING XUSUSIYATLARI

Saidaxmedova Aida Mirzayevna

TDIU "Bank ishi va investitsiyalar" kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqlolada aktsiyadorlik jamiyatlaridagi investitsion faoliyotni oshirish uchun dastlabki investitsion jarayonlarni ichki nazorat va audit tizimi asosida shakllantirish, rivojlantirish hamda investitsiya loyihalarida ichki auditining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** aktsiyadorlik jamiyati, audit, audit obyektlari, investitsion audit, ichki va tashqi audit, investitsion faoliyat, investitsiya loyihalar, kompleks iqtisodiy tahlil.

**Аннотация:** в целях повышения инвестиционной активности в акционерных обществах в статье описаны процессы формирования и развития первоначальных инвестиционных процессов на основе системы внутреннего контроля и аудита, а также особенности внутреннего аудита в инвестиционных проектах.

**Ключевые слова:** акционерное общество, аудит, объекты аудита, инвестиционный аудит, внутренний и внешний аудит, инвестиционная деятельность, инвестиционные проекты, комплексный экономический анализ.

**Abstract:** in order to increase investment activity in joint-stock companies, the article describes the formation and development of initial investment processes based on the internal control and audit system, as well as the specific features of internal audit in investment projects.

**Key words:** joint-stock company, audit, objects of audit, investment audit, internal and external audit, investment activity, investment projects, complex economic analysis.

## KIRISH

Investitsion faoliyat auditini tashkil etish tizimli yondashuvni taqozo etadi, uning doirasida ushbu tizim aktsiyadorlik jamiyatlarini samarali yuritishning umumiy maqsadiga bo'yundirilgan, o'z ichiga qonunchilik talablariga rioya etilishini, buxgalteriya hisobini yuritishning aniqligi va to'liqligini, ishonchli buxgalteriya hisobotini o'z vaqtida tayyorlashni, xatoliklar va buzib ko'satishlarga yo'l qo'yilmasligini, buyruqlar va ko'satmalarining bajarilishini, aktsiyadorlik jamiyatları subyekt mol-mulkining saqlanishini ta'minlashni nazorat qilish hamda tekshirishni olgan elementlar yig'indisi sifatida qaraladi.

Bugungi kun voqeligi shuki, aktsiyadorlik jamiyatlarining past investitsion faolligi tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Investitsion faollikni oshirish uchun aktsiyadorlik jamiyatları subyektlardagi dastlabki va investitsion jarayonlarni audit tizimini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha taddiqotlar olib borish juda muhimdir. Investitsion audit tizimini shakllantirish va rivojlantirish va uni xo'jalik yurituvchi subyekt ehtiyojlariga bo'yundirish zarurati va dolzarbligi mazkur maqola mavzusini va yo'nalishlarini tanlashni belgilab berdi.

O'zbekistonda buxgalteriya hisobiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining joriy etilishi bilan mulkdorlar, aktsiyadorlar va investorlarning manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu moliyaviy hisobotni audit qilish ta'sirchanligini oshirishni taqozo etadi. Buning uchun esa, auditning xalqaro standartlariga (AXS) mos keladigan yuqori sifatli audit standartlari; auditorlik tashkilotlari va auditorlarning mustaqilligi haqidagi qat'iy tartib-qoidalar, ularga qo'yiladigan yagona malaka talablari, auditorlarning yuqori darajadagi malakasi, auditorlik tashkilotlari va auditorlar ishi sifatining birinchi galda professional ijtimoiy birlashmalar tomonidan nazorat etilishi auditorlik tashkilotlari va auditorlarni davlat va jamoatchilik tomonidan nazorat qilishning samarali tizimini tashkil etishga shart-sharoit yaratadi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ichki audit va nazoratga oid muammolarni ilmiy jihatdan ishlab chiqishning hozirgi holati mutaxassislarining uning mohiyatini tahlil qilishga tabaqalashtirilgan yondashuvi bilan tavsiflanadi. Audit nazariyasini rivojlantirishga ko'plab mahalliy va xorijiy mualliflar hissa qo'shganlar, jumladan: K. B. Axmedjanov, R. Dusmuratov, A. A. Karimov, A. K. Ibragimov, Sh. I. Ilxamov, Z. T. Mamatov, M. M. Tulaxodjayeva, B. A. Xasanov, R. A. Alborov, V. D. Andreyev, V. G. Afanasyev, N. G. Gadjiyev, Y. A. Danilevskiy, A. K. Makalskaya, M. V. Melnik, V. I. Poldolskiy, A. D. Sheremet va boshqalar.

Boshqaruv nazariysi bo'yicha mutaxassislar boshqaruv faoliyatining uch bosqichini (maqsadni loyihalash va belgilash; qabul qilingan qarorni amalga oshirishni tashkil etish; bajarilishini nazorat qilish) ajratib ko'rsatib, nazoratni boshqaruv tsiklining maxsus bosqichi sifatida izohlaydilar. Sh.I. Ilxamov nazoratga erishilgan natijalarni rejalashtirilgan natijalar bilan solishtirish imkonini beruvchi boshqaruv faoliyatining yakuniy bosqichi sifatida qarash ilmiy adabiyotlarda mustahkam o'r'in olgan nuqtai nazar ekanligini qayd etadi [1, 29-b]. Aksincha, R.D. Do'smuratovning ta'kidlashicha, bunday yondashuv ko'rib chiqilayotgan hodisaning faqat bir tomonini aks ettiradi va shuning uchun ilmiy to'liqlikka da'vo qila olmaydi. Nazoratni butun uzunligi davomida boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqlik [2, 57-bet].

Ba'zi olimlar nazoratni belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishga qaratilgan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga muvofiq obyektning ishlashini ta'minlaydigan mustaqil jarayon sifatida tavsiflaydilar. L. V Sotnikovaning so'zlariga ko'ra, "nazorat – bu muntazam va uzlusiz jarayonlar majmui bo'lib, ular orqali ularning ishtiroychilari qonuniy shaklda davlat sektorining samarali faoliyat yuritishini, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, boshqa xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatini ta'minlaydi" [3, 45-bet]. Ikkala ta'rif ham nazorat maqsadining ko'rsatkichini o'z ichiga oladi, lekin uning mazmunini ham, uni amalga oshirish usullarini ham aks ettirmaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aktsiyadorlik jamiyatları faoliyatga oid atamalar, tushunchalar ularni baholashning alohida qoidalari normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. Audit jarayonida ularning ishonchliligini baholashda tizimli tahlil va kontseptual asoslarining ilmiy metodologik apparatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy maqolada ko'tarilgan muammoni atloficha tahlil qilish, tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induktsiya va deduktsiya, taqqoslash, adabiyotlar sharhi, miqdor va sifat ko'rsatkichlar hisoblash, maqsadli rivojlantirish kabi usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, aktsiyadorlik jamiyatlarining investitsion jarayonlarining auditini tashkil qilishga, shuningdek, ichki nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

- investitsion faoliyat subyektlarining turli-tumanligi;
- investitsiyalar obyektlarining keng doirada ekanligi;
- investitsion loyihalar davomiyligi (loyihalar hayot tsikllari)ning variantliligi;
- investitsion jarayon subyektlarining o'z kuchi bilan aktivlarning saqlanganligini nazorat qila olmasligi;
- tekshiruvlarning bir yo'la bir nechta subyektlar tomonidan amalga oshirilishi;
- investitsion loyiha bo'yicha ishlarning ham o'z kuchi bilan, ham tashqi tashkilotlarni jaib qilgan holda bajarilishi.

Aktsiyadorlik jamiyatlarining investitsion jarayonlarida investitsion faoliyatning ancha ko'p sonli subyektlari ishtiroy etadi, ular esa o'z oldiga turli maqsad va vazifalarni qo'yadilar, shu sababli bir tomondan, ular iste'mol qiladigan oraliq va natijaviy axborotning bir-biridan farq qilishi, ikkinchi tomonidan, auditorning ushbu axborotning ishonchliligini ta'minlashga qaratilgan turli tartiblardan foydalanishi ham shu bilan belgilanadi.

Aktsiyadorlik jamiyatlarining investitsion loyihalariga taalluqli axborot iste'molchilarining kamida quyidagi guruuhlarini ajratish mumkin:

- axborotning ichki foydalanuvchilari. Ularga, birinchi navbatda, investitsiyalash obyektidan foydalanuvchilar kiradi. Ularni ma'muriy vakolatlarga ega bo'lgan ichki iste'molchilarga (korxona direktori, loyiha rahbari, moliyaviy direktor va h.k.) hamda investitsion loyihalar bo'yicha axborotdan u yoki bu tarzda



- foydalanuvchi tashkilotning boshqa xodimlariga (iqtisodchilar, moliyachilar, buxgalterlar va h.k.) ajratish mumkin;
- axborotning tashqi foydalanuvchilari. Ularga investitsion faoliyatning u yoki bu loyiha mablag' kiritish yoki kiritmaslik haqida qaror qabul qiluvchi subyektlari kiradi;
- axborotning loyihamdan tashqari foydalanuvchilari: bank, sug'urta, tashkilotlari, vositachilik va boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi yuridik shaxslar;
- axborotning davlat tuzilmalariga tegishli bo'lgan foydalanuvchilari: soliq inspeksiyalari, sud organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, davlat hokimiyyati organlari va boshqalar.

Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jarayonga tegishli axborotdan foydalanuvchilar guruhalrini ajratish uni audit va ichki nazorat maqsadlari uchun bo'g'inlarga bo'lish hamda uning mahfiyligini ta'minlash imkonini beradi. Axborot quyidagi belgilari bo'yicha bo'g'inlarga bo'linishi mumkin:

- u yoki bu iste'molchilar guruhalriga taqdim etish hajmlariga qarab;
- nazorat subyektlari bo'yicha. Bunday bo'g'inlash jarayonida bevosita tashqi auditor va ichki nazorat tizimi tomonidan tekshiriladigan axborot ajralib chiqadi. Fikrimizcha, ichki foydalanuvchilar guruhiiga taalluqli axborotning ishonchlilagini nazorat qilishni ichki nazorat kuchlari bilan ta'minlashi mumkin, davlat hokimiyyati organlari esa tashqi mustaqil nazoratdan o'tgan axborot bilan ishlashlari kerak;
- qo'llaniladigan auditorlik amallari bo'yicha. Axborot turlicha bo'lgani bois turli auditorlik amallaridan, shuningdek, turli axborot bo'g'inlari auditini tashkil qilish uchun ichki nazorat amallaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, investitsion jarayonlar auditini tashkil qilishning tizimli hal qiluvchi omillaridan biri shundan iboratki, axborotdan foydalanuvchilar guruhalrining manfaatlari yo'lida nazorat tadbirlari o'tkaziladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion loyihamlar auditining o'ziga xos xususiyatlari ular davomiyligining ko'p qirraligi bo'lib, bu loyihamarning turli hayot tsikllarida namoyon bo'ladi. Investitsion faoliyat auditi va uning ichki nazoratini tashkil qilish nuqtai nazaridan investitsion loyihamarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- 1) bir hisobot yilidan kam davomiylikka ega qisqa muddatli investitsion loyihamlar. Loyihalarning ushbu toifasiga amal qilayotgan biznesni, mahsulot ishlab chiqarishga tayyor quvvatlarni (texnologik liniyalar, majmualarni) sotib olish, shuningdek, nomoddiy aktivlar (tovar belgilari, litsenziyalar, patentlar)ga mablag'lar kiritishga asoslangan investitsiyalar kiradi. Auditni tashkil qilish nuqtai nazaridan ko'rsatib o'tilgan investitsion loyihamlar majburiy yillik audit jarayonida uning bir qismi sifatida ham, mustaqil tekshiruv sifatida ham tahlil qilinishi mumkin. Bunday loyihamlar bo'yicha audit obyektlari investitsion audit uchun xos tarkibiy qismlarni ham (loyiha-smeta hujjatlari), natijaviy ma'lumotlarni ham (ishlab chiqarish hisobotlari, buxgalteriya va moliyaviy hisoboti) o'z ichiga oladi. Ayni shu sababli qisqa muddatli investitsion jarayonlar auditini tashkil qilish kompleks iqtisodiy tahlil, rejali va amaliy ko'rsatkichlarni tahlil qilishni qamrab oladi;
- 2) bir hisobot yilidan ko'proq davomiylikdagi uzoq muddatli investitsion loyihamlar. Ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:
  - natijalar investitsion davr oxirida olinadigan uzoq muddatli loyihamlar. Bu holda hisobot davri davomida auditni tashkil qilishda obyektlar sifatida faqat loyihami va rejali ma'lumotlar ishtiroy etadi, natijaviy ma'lumotlar esa (masalan, tayyor mahsulot hajmining ortishi) faqat bir necha yildan keyin tekshiriladi. Audit metodikasida nazoratning hujjatlashtirish usullariga ko'proq e'tibor qaratish kerak, chunki faktik nazorat uchun obyektlar soni yetaricha bo'limasligi mumkin. Shundan kelib chiqib, ichki auditning mustaqil tashqi nazorat uchun axborot manbasi sifatidagi roli bir necha marta oshadi;
  - natijalar investitsion davrning o'zidayoq olinadigan uzoq muddatli loyihamlar. Bunday investitsion loyihamlar auditini tashkil qilish nazorat obyektlarining doim o'zgarib turishi (natijaviy ma'lumotlar, reja ko'rsatkichlari o'zgarishi) bilan ajralib turadi, chunki loyihami joriy etish davomida uning bosqichlari va parametrlari olingan natijalarga qarab tuzatib boriladi. Shu munosabatda bunday investitsion loyihamlar auditini tashkil qilish nazorat obyektlari va me'yoriy axborotni tezkor tuzatib borishnigina emas, balki loyiha parametrlerining qanchalik asosli tuzatilganini baholash uchun ekspertlarni jalb qilishni ham ko'zda tutishi kerak.

Investitsion faoliyatni nazorat qilish xususiyatlarini aks ettiruvchi yana bir murakkab masala, – bu bir vaqtning o'zida bir nechta subyektlar (ichki auditor, tashqi auditor, davlat moliyaviy nazorat organlari, bank va sug'urta tashkilotlari) tomonidan tekshiruvlarni amalga oshirish. Turli subyektlarning nazorat obyektlari biz tomonimizdan 1-jadvalda tizimlashtirib berilgan.



1-jadval: Turli subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsion faoliyatning nazorat obyektlari


Nazorat obyektlari	Nazorat subyektlari				
	ichki auditor	investorning vakillari	banklar, sug'urta tashkilotlari	Davlat moliyaviy nazorat organlari	tashqi auditor
A	1	2	3	4	5
Loyiha-smeta hujjatlarining sifati	+	+	-	-	+
Investitsion loyihaning bajarilishini bosqichma-bosqich nazorat qilish	+	+	+	-	+
Moliyaviy va boshqa taxminiy axborotlar	+	+	-	-	+/-
Kassa muomalalari	+	+	+	+	+
Moddiy boyliklar saqlanadigan ombor	+	-	-	+	+
Mehnatga haq to'lash	+	-	-	+	+
Uzoq muddatli aktivlar hisobini tashkil etish	+	+	+	+	+
Uzoq muddatli aktivlarni saqlash sharoitlari	+	-	-	+	-
Debitorlik qarzları:					
-umumi	+			+	+
-debitorlar bo'yicha	+	+	+	+	+
Kreditorlik qarzları:					
- umumi					
- kreditorlar bo'yicha	++	+	+	+	+
- byudjet bilan hisoblashishlar bo'yicha	+			+	+
Aktsiyadorlik jamiyatlarining tahlili	+	+	-	+	+
Hujjatlar aylanishi	+	-	-	-	-
Lavozim yo'riqnomalarini bajarilishi	+	-	-	-	+/-
Ichki xo'jalik buyruq va farmoyishlarni bajarilishi	+	-	-	-	+/-
Jarayonlar:					
- tayyorlov	+				
- ishlab chiqarish	+	-	-	-	-
- sotish	+				
Mahsulot sifati	+	+	-	-	-
Konsalting	+	-	-	-	-/+
Tavsiyalar	+	+	-	-	+

1-jadvalni tahlil qilish shuni ko'ssatadiki, bir xo'jalik subyektini bir davrning o'zida bir xil masalalar bo'yicha turli nazorat subyektlari tekshirishi mumkin, ayrim masalalar bo'yicha esa tekshiruvni faqat ichki auditor olib boradi. O'ylaymizki, bunday vaziyat ko'p jihatdan turli nazorat organlari o'ttasidagi o'zaro ta'sirining mukammal emasligi bilan izohlanishi mumkin. Faqat shuni aytish kerakki, bir obyektni tekshirish funksiyalarining takrorlanishini anglatmaydi, chunki tekshiruvlar axborotdan foydalanuvchilarning turli guruhlari manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi va nazorat axboroti turli darajada detallashtiriladi. Shu bilan birga, funksiyalarini va nazorat obyektlarini samarali ajratgan holda takrorlanish samarasini birmuncha kamaytirish mumkin. O'ylaymizki, ichki audit xizmati tomonidan samarali, tezkor va uslubiy ta'minlangan nazoratning amalga oshirilishi, shuningdek, nazorat standartlarining soddalashtirilishi – nazoratni investor, banklar, sug'urta tashkilotlari, davlat organlari va qisman tashqi auditorlar zimmasidan ichki audit tizimiga ko'chirish imkonini beradi. Bunday holda nazoratning



boshqa barcha subyektlari o'z ishini ichki auditorlardan olingen ma'lumotlarni hisobga olib tashkil qiladilar, bu esa, fikrimizcha, xo'jalik subyekti – investitsiyalarni oluvchining moliyaviy-aktsiyadorlik jamiyatlarini tekshirishlar sonini tartibga solish (kamaytirish)ga yordam beradi.

Aktsiyadorlik jamiyatlarining investitsion jarayon xususiyatlarining ta'sirini baholash asnosida biz tashqi va ichki nazoratni o'zaro muvofiqlashtirishga imkon beruvchi chora-tadbirlarni taklif etishga harakat qildik. Investitsion faoliyatning tashqi va ichki auditini tashkil qilish shunday jarayonki, unda nafaqat tashkiliy va uslubiy, balki texnik muammolar ham hal etiladi. Tadqiqot jarayonida biz xo'jalik subyektlari – investitsiyani oluvchilarning tashqi va ichki auditi amal qilishining tashkiliy bosqichlarini ajratib berdik (1-rasm).



**1 - rasm:** Aktsiyadorlik jamiyatlarining tashqi va ichki investitsion auditining tashkiliy bosqichlari

Aytish joizki, ichki va tashqi auditning o'zaro ta'sirini investitsion auditning har bir tashkiliy-tehnologik bosqichida ta'minlash mumkin va maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ichki nazorat va xususan, ichki audit tizimining axboroti nazoratning boshqa barcha turlari va subyektlari uchun asosiy baza bo'lishi kerak. Xo'jalik subyekti investitsion auditining birinchi tashkiliy bosqichi umumiya maqsad va vazifalarni aniqlash bosqichi bo'lishi kerakki, ularga erishish u yoki bu darajada ham tashqi, ham ichki auditor ishining sifat ko'rsatkichi vazifasini o'taydi. Ushbu bosqich xo'jalik subyekti hujjatlarini, jumladan, investitsiyalash jarayonlariga tegishli bo'lmagan, biroq xo'jalik subyektining o'zi tomonidan nazorat vazifalari va maqsadlarini eng maqbul tarzda integratsiyalash uchun korxonaning strategik, taktik va tezkor maqsadlarini ("ichki va tashqi audit" aloqasi o'rtaida ham) belgilash imkonini beradigan hujjatlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Shuni ham alohida aytish joizki, tashqi va ichki investitsion auditni tashkil qilish bo'yicha olib boriladigan ishlarning natijalari oldingi tashkiliy bosqichlarga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, nazorat rejalarini va dasturlarini puxta ishlab chiqish u yoki bu strategik va lokal maqsadlar va vazifalarni aniqlashtirish zaruratini keltirib chiqarishi mumkin.

Ichki audit xizmati to'g'risida nizomni investitsion auditning tashkiliy bosqichi hisobida aniqlashtirishda ichki audit xizmati ichida huquqlar va majburiyatlarning, barcha toifadagi xodimlar vakolatlarining taqsimlanishini, ichki audit xizmati va uning tarkibiy bo'linmalarining hisobdarligini aniqlashtirish talab etiladi. Ushbu bosqichda nazorat axboroti bilan eng yuqori darajadagi samaradorlik bilan va to'liq ayirboshlashni tashkil qilish uchun ichki firma auditorlik standartlari ishlab chiqilishi va ular ichki auditni o'tkazish metodikasi bilan uyg'unlashtirilishi mumkin.



shi kerak. Buning uchun axborot ham ichki, ham tashqi auditor tomonidan umumiyligi kelishilgan kontseptsiyalar, tamoyillar, metodikalar asosida shakllantirilishi kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, aktsiyadorlik jamiyatlarining investitsion faoliyati xususiyatlari ichki va tashqi audit tizimining amal qilishigagina emas, balki har qanday samarali faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektining ajralmas qismi sifatida ularning shakllanishi va o'zaro ta'sir qilishi jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar davomida aniqlagan bir qator investitsion audit xususiyatlari, masalan, investitsion faoliyat subyektlarining turli-tumanligi va investitsiyalar obyektlarining kengligi, ichki audit xizmati xodimlari zimmasiga muayyan huquq va majburiyatlarini yuklash zarurligini belgilaydi. Fikrimizcha, alohida xodimlarning ham, umuman ichki audit xizmatining ham investitsion audit maqsadlari va vazifalarini aks ettiruvchi huquq va majburiyatlar ichki boshqaruvning quyidagi hujjatlarida ifodalanishi kerak:

- ichki audit xizmati to'g'risidagi nizomda;
- ichki audit xizmatining ichki siyosati to'g'risidagi nizomda;
- ichki audit standartlarida;
- ichki auditorlarning lavozim yo'riqnomalarida.

Ichki boshqaruvning ko'rsatib o'tilgan elementlari quyidagi assosiy belgilarga ega bo'lishi lozim:

- tez-tez uchrab turadigan munosabatlarda qo'llaniladigan me'yordan tashkil topgan bo'lishi. Investitsion auditga tadbiqan bu, avvalambor, ichki audit subyektlarining assosiy huquq va majburiyatlarini mustahkamlab qo'yishni bildiradi, aniq vaziyatlarni talqin qilish esa ichki auditorning malakaviy tajribasiga tayanishga asoslanishi kerak;
- ichki audit xizmati faoliyatining turli tomonlariga nisbatan me'yorlar tizimidan iborat bo'lishi. Bunday xususiyatlarga ko'proq ichki audit standartlari ega bo'lishi lozim, bu standartlar ichki audit tizimi ishining ham tashkiliy, ham uslubiy jihatlarini tartibga soladi;
- ular daxldor bo'lgan xodimlar uchun majburiy tusga ega bo'lishi kerak. Ichki auditni ichki boshqarish tizimida alohida xodimlar uchun ishlab chiqiladigan lavozim yo'riqnomalari ko'proq aniq subyekt tomon yo'nalganlikka ega. Ichki audit standartlari ham muayyan subyektlar – ularni bajaruvchilarga qaratilgan;
- yozma shaklda qayd etilishi lozim.

Fikrimizcha, ichki audit xizmatining ishslash tartibi xo'jalik subyektining investitsion faoliyatida ham, umuman moliviy-aktsiyadorlik jamiyatlari uchun ham tegishli buyruq bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Aktsiyadorlik jamiyatlarining investitsion jarayonlarini samarali audit qilish uchun ichki audit xizmati ichki audit standartlarini ishlab chiqishlari kerakki, ularda investitsion faoliyat ichki auditining xususiyatlari o'z aksini topishi lozim.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ilxamov Sh.I. Audit (1-qism) Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2018.
2. Do'smuratov R. D. Audit asoslari. Darslik. – T.: -2003.- В. 245.
3. Сотникова Л. В. Внутренний контроль и аудит. Учебник. - М.: Финстатинформ, 2001. –С. 42-49.
4. Данилевский Ю. А., Шалигузов С.М. и др. Аудит: Учеб. пособие. - 2-е изд. перераб. и доп. - М.: Издательский дом ФБК-ПРЕСС, 2018. – С. 139.
5. Скобара В. В. Аудит. Методология и организация. - М.: Дело и сервис, 2008. –С. 195-198.
6. Ilxamov Sh. I. Audit jarayonida ichki nazorat tizimini baholash metodologiyasi. Monografiya. T.: Iqtisodiyot, 2012.
7. Ilxamov Sh. I. Amaliy audit (Darslik). – T.: Iqtisodiyot, 2018.
8. Audit. 1-2-jild. Darslik. M. M. Tulaxodjaeva va Sh. I. Ilxamov umumiyligi tayyorlangan. – T.: Norma, 2008.

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.